

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI “KINO,
TELEVIDYENIYE VA RADIO SAN'ATI” FAKULTETI**

“SAN'ATSHUNOSLIK JURNALISTIKASI” BO'LIMI

“SAN'AT ASARLARI TAHLILI, TANQIDI VA TARG'IBI ” FANIDAN

KURS ISHI

MAVZU: Sharof Boshbekovning “Eshik qoqqan kim bo'ldi”

pyesasi tahlili

BAJARDI: Matyoqubov A.

QABUL QILDI: s.f.d., prof. M.Hamidova,

o'qituvchi K.Sagdullayev

TOSHKENT - 2012

“Eshik qoqqan kim bo’ldi?” pyesasi tahlili.

Dunyo atalmish mo’jizakor ummonga tashrif buyurgan odamzod, umr hamrohligida hayot saltanatiga qadam ranjida aylar ekan, mehr-u oqibat injulari birla kamol topa boradiki, alalxusus insoniylik taxtining sohibiga aylanadi. Valek faqat o’z manfaatini ko’shkini izlaganlar bu javohirotlardan asta-sekin ayrila boshlab, o’zlig-u asliyat makonlaridan yiroqlashadilar, odamiylik fazilatlarini boy bera boshlaydilar. Shul sabab uzoq o’tmish sarhadlaridan buyon ijod tulporlarini qamchilab kelayotgan “ezgulik chavandozlari” insonlarni mehr-oqibatli bo’lib, o’zligini yo’qotmaslikka chorlovchi minglab “mash’al”lar yaratdilar, bu borada 1980-yil “Taqqdir eshigi” uchquni birla dramaturgiya olamiga kirib kelib, “Tikansiz tipratikonlar” (1981), “Tushov uzgan tulporlar” (1982), “Temir xotin” (1988) singari yorqin mavzudagi yog’dular sochguvchi durlarni bisyor etgan Sharof Boshbekovning 1989-yilda bitilgan “Eshik qoqqan kim bo’ldi?” nodiroti alohida ahamiyatga molikdir. Insonlarni mehr-oqibatga, poklig-u halollikka chorlovchi mazkur pyesa, o’zligimizdan qanchalik yiroqlashib borayotganligimiz, chinakam qiyofamiz asli qanday bo’lishi lozimligi-yu bunda insoniy qadr-qiyamatning o’rni nechog’lik muhim ekanligini namoyon etish haqidadirki, unda insoniy fazilatlarini saqlab qolish g’oyasi nihoyatda chuqur ma’no-mazmun orqali ilgari surilgan. Voqealar silsilasida jamiyatning turli kasb-koriga aloqador kishilarning jamlanib, turfa xil qiyofalarda ko’rinishi-yu, umuminsoniy muammolar pyesaning ijtimoiy mavzusini belgilaydi. Insonlar o’rtasidagi o’zaro munosabat, halollik, ishonch kabilarda ana shunday belgilar namoyon bo’ladi. Ayni damda uning tragikomediya janrida ekanligi, kulgu yetakchiligiga jiddiylik tizginlarini tutqazadiki, bu xususiyat “yubiley” sharofati birla yig’ilgan kishilarning xushchaqchaq hazil-mutoyibalari ortidan achchiq haqiqatlarning yuzaga chiqishida ko’rinadi. Xususan, qahramonlar o’rtasidagi quyidagi dialoglar orqali:

Radioladan shovqin suronli muzika quloqni qomatga keltirgandek bo’lib yangraydi.

Pirmat. Nima balo bu?

Qulmat. Qaysi?

Pirmat. Anavi shovqinni aytaman. Radiosi buzuqmi deyman.

Olim. “Abba” bu otam.

Pirmat. Labbay?

Olim. Shunaqa ansambl bor – “Abba!”

Pirmat. Sekin-e! Har baloni gapiraverarkan-da, zaifalarning oldida! (*radiolaga ishora qilib*) Unaqa kasali bo'lsa qiynab nima qilasan, boshqasini yurgiz, ana, ko'p ekan-ku, imon topgur.

Olim. (*kulib*) Aha, tushunamiz, tushunamiz...

Keyingi voqealardagi suhbatlar asnosida hamda qahramonlarning xush kayfiyatda bo'lishlari bois pyesaning komediya unsurlari namoyon bo'lsa, ular qiyofasidagi haqiqat pardalarining ko'tarilishi oqibatida aks etgan fojiaiy asliyat manzarasi tufayli tragediya jihatlari oydinlashadi. Voqealar kuz faslining oktabr oyi ohirida, 13:00 lardan 19:30 lar oralig'idagi bir kunda ro'y beradiki, buni pyesa qatnashchilaridan birining "Ish ko'p, maktabda chorak tugayapti" so'zlaridan anglashimiz mumkin. Ma'lumki o'rta maktablar to'rt chorak asosida o'quv ishlarini olib borib, shulardan dastlabkisi noyabr oyining birinchi haftasigacha davom etadi. Ayni "chorak tugayotgan" ligini oktyabr so'ngiga bog'lashimiz esa pyesa avvalida qahramonlar kiyimiga berilgan tasnifga asoslanadi. Ulardan birining oq salla, egniga chopon, oyog'iga mahsi-kovush kiyib, boshqasining nisbatan "zamonaviyroq": boshiga do'ppi, kitel ustidan to'n, oyog'iga xrom etik kiyib olganligi ob-havo jihatidan shu oylarga mos kelishini ko'rsatadi. Kun vaqtidagi aniqlik uchun ham tayanch manbaa mavjud bo'lib, Olimning magnitafonni tayyorlay turib, "lentasi ikki soatga yetadi" deya uni ishga tushurishi hamda voqealar so'nggida uning o'chib qolishi, huddi shu vaqtda Pirmatning "xuften bo'lib qoldi, tahoratga suv tayyorla, bolam" jumlasidan, demak, magnitafon o'chganda ikki soatdan oshiqroq vaqt o'tganligi va taqvim kuzatuv bo'yicha oktabr oylari oxirida xuften 19:00 dan boshlab kirishini hisobga olgan holda pyesa so'nggidagi voqealar soat 19:30 larga to'g'ri kelishini tasdiqlash mumkin. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, pyesa mohiyatini tashkil etuvchi ulkan g'oyalar xazinasining bir necha soatlik hodisotlar uyiga sig'dirilganligi dramaturg iste'dodining yuksak mahoratidan dalolatki, bunga pyesa nomidagi "sirli bo'yoqlar" misolida yana bir karra ishonch hosil qilish mumkin. Zero "eshik qoqqan" kimligini bilish ishtiyoqi o'quvchini g'oyibona so'nggi voqealar manzili tomon yetaklab, muallif tarafidan qo'yilgan savolga javob axtarish uchun xushyorlik tuyg'ularini sergaklantiradiki, natijada o'quvchi qanday qilib voqealar girdobiga tortilib ketganligini payqamay qoladi. Bundayin o'ziga xos san'atning qo'llanishi ayni paytda dramaturgning uslub yo'nalishidagi nozik chizg'ilarni ham oshkor qiladi. Pyesa boshidan qo'yilgan ushbu jumboq ota-o'g'il, Pirmat va Qulmatlarning shahardagi ko'p qavatli uylardan biriga kirib kelishi bilan o'z yechimi sari yuzlana boradi. Muallifning Pirmatga: "Uning alp qomatini ko'rib, guldirak ovozi eshitgan odam bu cholning saksondan oshib ketganiga ishonishi qiyin" deya, Qulmatga esa: "Pirmatning o'g'li. Yarim asrdan ko'proq umr ko'rgan bo'lsayam otasi uchun haliyam bola" tarzida keltirgan izohlaridan o'quvchi ko'z o'ngida ular haqidagi ilk taassurotlar paydo bo'ladi va keyingi voqealar zahirida ularning qiyofalari ta'riflanganidek gavalana boshlaydi. Xususan, Qulmatning:

“Shaharni bilmas ekansiz, dada. Ilmga sal aralashdimi, eshigiga “bu yerda falonchi olim yashaydi”, deb yozib qo’yishadi, xo’pmi. Rahmatullaga o’xshaganlar yozmaydi – demak, adashmabmiz” deya so’zlagan ilk jumalari, avvalo, ularning Rahmatulla ismli olim uyiga kelganliklarini bildirsa, so’ngra dramaturgning zamona ilm ahllariga bergan nisbatidan nishona bo’lgayki, bundan Qulmatning shahar hayotidan boxabarligi ravshanlashadi. Asar muqaddimasida uy ko’rinishining: “Shahardagi ko’p qavatli uylarning biridagi xona. Uy jihozlarining aksariyati kitoblar. Xona tartibsizroq, anchadan beri supurgi ko’rmagan, buning ustiga nihoyatda oddiy. Xonaning to’rt burchagiga tutashtirib, xoch shaklida arqon tortilgan. Unga yosh bolalarning ko’ylak-ishtonlari yoyilgan. Xona bitta emas, bizga ko’rinmagani uchun boshqalari haqida gapirib o’tirmadik” deya tasvirlanishi bir qadar ayni vaziyatdagi muhitni his etishimiz uchun asos bo’ladi. Ochiq eshikdan Pirmatning: “Shundoq kiraversak zambarkka tutarmidi” zaylida shaxd bilan kirib kelishi, Qulmatning: “Kovushni shu yerga yechasiz” ko’rsatmasiga “O’rgatma, o’zimam bilaman” deya javob qaytarishi, Qulmatning o’zi bilan olib kelgan ikki ko’zi to’la xurjunni qayerga qo’yishni so’rab otasiga murojaat qilganida “boshimga qo’y, boshimga” tarzida “vov” illab berishi uning cho’rtkesar, o’zbilarmon hamda biroz qo’pol tabiatga ega ekanligidan dalolat berib, birinchilar qatorida o’quvchi yodidan joy egallaydi. Uning “yubley, yubley! Ana “yubley!” Hech zog’ yo’q”, “Hamma yoqqa ishton osib qo’yib, yubley qilarkanmi” deya kuymalanishidan ularni bu yerga boshlab kelgan sabab neligi oydinlashadi. Pirmatning kresloga chordona qurib o’tirishi-yu, Qulmatning suv so’ragan otasiga “grafinda suv olib chiqib, bir qo’lidagi bolalar tuvagi” yordamida ota qo’liga suv quyishi ular xarakteridagi jaydarilik alomatlarini yaqqol namoyon qiladi. Shuningdek Pirmatning “qo’ylarini o’ylab esi ketishidan” uning o’z ishiga bo’lgan mas’ulligi seziladiki, shu vajdan ham u nuqul tezroq ketish payida bo’ladi. Shu payt Pirmat “xonaning tezda ko’z ilg’amaydigan” joylaridagi besh-oltita odam bosh chanog’i qo’yilgan javondagi suyaklarni ko’rib, “Yo olloh! Yo qoziyul hojat!” deya qo’rqib ketib, o’g’liga “hammasini yig’ishtirib, biron joyga” ko’mdirmoqchi bo’lishi, hatto, bundan “savob” izlashi uning din borasida ma’lum ilmga ega bo’la turib, dunyoviy bilimlardan uzoq ekanligini ko’rsatadi. Zero biror uyda inson bosh suyagining saqlanishi shu joyda paleontolog yoki tibbiyot ishchisi turishidan dalolatki, buning uchun oz bo’lsa-da, shu sohalardan boxabar qilguvchi fanlarni o’qimoq zarurdir. Ammo pyesaga Pirmatdek qahramonning kiritilishi dramaturgning ulkan jasorati bo’lsa ajab emas. Chunki asar yozilgan davrlarda diniy tushunchalar tor, Pirmat kabi “oppoq soqolli, oq sallali, egnida chopon, oyog’ida mahsi-kovush”da ko’rinish amrimahol bo’lganligi barobarida, Pirmatning hatto namoz o’qishga shaylanishi, o’zligimizni anglatishga bo’lgan urunish bo’lsa ne ajab. Shu o’rinda, suyaklar topilgach Pirmatning “Yo’qot ko’zimdan deyapman! Uymi bu, qabristonmi?!”, “Bu uyda yo kalla turadi, yo Pirmat turadi!” deya qat’iy fikr bildirishi, uning irimchiligi va jizzakiligini namoyon qilgani holda Qulmatning “E, baqiraverasizmi hadeb. Nima, yosh

bolamanmi men?” qabilida e’tiroz bildirishiga “Tbi!Katta odam bo’lib qoldingizmi hali? Ho’, kattakon, o’ng qo’lingizni sindirib, chap qo’lingizga tutqazib qo’yaman, qishlog’ingizga shiqildoq qilib o’ynab ketasiz! Mahmaddonligini-chi buning! Nonni “na-na-na” deb yuribdi-yu, zakun talashadi tag’in” tarzida koyishi asnosida chindan ham uning o’g’liga nisbatan yosh boladay qarashi hamda hali ham jismoniy baquvvat ekanligidan dalolat beradi.Ayni paytda Qulmatning oltmishga chiqib-da ota so’zlariga quloq tutishi, uning ham farzand, ham inson sifatidagi qiyofasini aks ettiradi. Zero qadrdon do’shini izlab, yubileyga otasini ham ergashtirib kelganligiyoq uning tabiatida cheksiz insoniy fazilatlar mujassamlashganligini ko’rsatadiki, bu ayniqsa keyingi jarayonlarda yaqqol namoyon bo’ladi. Ota-o’g’il o’rtasida kechayotgan bundayin suhbat zayli nainki ular qiyofasini aks ettirishda, balki muallifning zamona kishilariga yetkazmoqchi bo’lgan muhim fikrlarini qamrab oladi. Buni Pirmatning go’yo butun insoniyatga qarata “E, odamizod, odamizod... na tirikligida bir-birini tinch qo’yadi, na o’lganida. Erinmay kavlashadi-ya...” deya bildirgan nadomatidan uqib olish mumkindir.Eshikda paydo bo’lgan Nozikning tashrifi esa mazkur fikrlar doirasining kengayishiga hamda pyesa voqealarining asta-sekinlik bilan rivojlanib borishi uchun turtki bo’ladiki, buni ilk dialoglar misolida kuzatish mumkin.Ya’ni bunda Nozikning “G’ala-g’ovurni eshitib hayron bo’ldim, Rahmatulla akamlar keldimikin debman.Sizlarni tanimadim?” deya savol berishiga Qulmatning “Sanitar bilan birga jang qilganmiz, xo’pmi...”, “Rahmatulla urushda sanitarlik qilgan”, “Bugun sanitar oltmishga kirdi, xo’pmi...” deb javob qaytarishi-yu, Nozikning “Yo’g’-e?Rahmatulla akamlar-a?” deya hayron bo’lishi bir qator masalalarni, ya’ni Qulmatning vatan-chun jangga kirganligini, Nozik tabiatidagi bee’tiborlikni namoyon qiladi. Zero uning “Qarang, sizlar qayoqlardan kelib o’tiribsizlar, biz devor-darmiyon qo’shni bo’la turib hech gapdan xabarimiz yo’q” deyishi shundan dalolatdir.Bu ham o’z navbatida muallifning kundalik hayotda qo’ni-qo’shnilar o’rtasida yo’qolib borayotgan mehr-oqibat tushunchalarining aksi bo’lsa ajab emas.Uning Rahmatulla uyiga chayilib, osib qo’yilgan o’z kiyimlarini olib ketish uchun kirganligi ham shuni ko’rsatadiki, bundan qo’shni Nozikning undan faqat o’z manfaati yo’lida foydalanganligi anglashiladi.Bu esa Pirmatning Rahmatullaga nisbatan “ja bag’ri keng shekilli” deya fikr bildirishi-yu, asar tugunining yuzaga kelishiga sabab bo’ladi. Zero endilikda o’quvchi qalbida Rahmatulladek insonning asli qanday ekanligini bilish va uning ushbu davrada qachon namoyon bo’lishi haqidagi qiziqishlar to’lqinini mavjlantirib, o’z navbatida “Endi nima bo’ladi?” degan savollar karvonini yetaklab keladi. Kiyimlarini yig’ishtirib ola ketgan Nozikdan so’ng eshikni lang ochib, Olimning kirib kelishi mazkur savollar tizginini yechim sarhadlari tomon yo’naltirib, voqealar rivoji sari yuzlanadi. Bunda Olim qiyofasi uning dastlabki harakatlaridanoq ko’zga tashlanadiki, uning “shaxdam yurib, to’ppa-to’g’ri magnitafon yoniga” kelishi va tugmachasini bosib gapira ketishi uning ham atrofdagilarga nisbatan e’tiborsizligini ko’rsatadi. Garchi u Rahmatullaning O’likg’ordan olib kelgan suyaklari natijasida

erishilgan muvoffaqiyat birla quvonsada, Pirmat u haqda “Ro’parangda tirik odamlar turib, kela solib temir bilan tillashib ketyapsan” degan to’g’ri fikrni bildiradi. Ammo Olimning magnitafonga gapira turib, “Rahmatulla, antropometrik ma’lumotlarga qaraganda, sening suyaklaring antropogen davriga taalluqli bo’lib chiqdi. Yo’q, sening suyaklaring emas, sen O’likg’ordan olib kelgan suyaklar” deya o’z xatosini tuzatib ketishi uning aql bonglaridan sado beradi. U Rahmatullaga o’zi aytganidek “do’sti, hamkasbi, maslakdoshi” dir. Shu o’rinda uning Qulmat bilan tanishish chog’ida “Siz Rahmatullaning frontdosh do’stisiz”, “U siz haqingizda ko’p gapirgan” deyishidan Qulmatning Rahmatullanikiga uzoq yo’l bosib kelishi-chun arzirlik sabab borligi hamda buni Rahmatullaning Qulmatni yaxshi xotirda saqlab, Olimga ko’p gapirib berganligidan bilish mumkin. Olimning tabiatidagi maqtanchoqlik

Bu dunyoning jannatidir

Aslida qishloq.

Sabab shuki, unda mo’ldir,

Sut ila pishloq!

deya she’r o’qib “Eksprompt. Ma’no bo’lmasa ham qofiya bor”, o’z kasbini “O’ta zarur, shu bilan birga o’ta murakkab”, “Ba’zilar kecha yegan ovqatini eslolmaydi. Biz-chi?”, “Manavi kitoblarni ko’ryapsizmi, otam, bular hali miyaga sig’may qolgani” deya o’ziga ortiqcha baho berishida ko’zga tashlanadi. Shuningdek uning rasmiy doiralarda yurishi Pirmatdan “otchestva masalasi” ni so’rashida namoyon bo’ladi. Ayni u bilan muloqot jarayonida Pirmatning sodda tabiati yanada ko’zga tashlanadi. Xususan, Olimning bir o’rinda “da,da” deya ruschalab fikr ma’qullashiga Pirmatning “Ha ana, “dada” desang ham bo’laveradi” deya so’z ma’nosini uqmasligi shu kabi chizg’ilarni aks ettiradi. Qulmatning Olimga “Qo’ylardan xavotirdalar. Yetmish yildan beri qo’llaridan tayoq tushmaydi” deya otasi haqida so’zlab berishi esa Pirmatning umr bo’yi qanday ish bilan mashg’ul bo’lganligini o’quvchiga anglatadi. O’zaro suhbat Olim qiyofasidagi “rang” larni-da namoyish etib boradiki, ulardan biri uning Rahmatulla bilan munosabati haqida “Birga o’qirdik. O’qishni tashlab, urushga ketdi. Bizlar o’qishni davom ettirdik” deya aytgan iqrori orqali ko’zga tashlanadi. Holbuki urushdan qolib, ilm egallashi natijasida ham u chinakam olim bo’lib yetishmay, Rahmatullaning soyasida “chala va sohta” ilm kishisi bo’lib qolaverdi. Buni pyesa qatnashchilaridan birining unga qarata “Bir tasavvur qiling-a: Rahmatulla akamning aniq faktlari, har-xil raqamlari-yu taxminlari, ashyoviy dalillari bo’lmaganda holingiz nima kechardi? Rahmatulla akam qay go’rlardan azob-uqubatda qop-qop suyak olib keladilar. Erinmasdan nima, qachon, qayerdaligini tushuntirib beradi. Bu kishim bo’lsalar kabinetlarida o’tirib olib dissertatsiya yozadilar. Qarabsizki Olim Baratovich – doktor, sho’rlik Rahmatulla – o’sha-o’sha yugurdak!”

deya achchiq haqiqat “o’qlari” ni otganidan ochiq-oydin payqash mumkinki, bu-da Olim sajiyasidagi sohtalik, ikkiyuzlamachilik singari o’ziga xos qirralarni namoyon etadi. Huddi shuningdek Pirmat obrazidagi boshqa chizg’ilarni ham, Olim bilan bo’lgan dialoglar yordamida uchratish mumkin. Jumladan Olimning “Umrimizning yetmish protsentini o’qishga, faqat o’ttiz protsentini o’sha bilimni ishlatishga sarflaymiz” degan xitobiga Pirmatning “Shuncha o’qib jichchagina foydang tegar ekan, deyman. Kamroq o’qib, elga ko’proq foydang tekkani durustmasmi, imon topgur?” deya ma’noli fikr bildirishidan uning donoligi ko’rinishi bilan birga, muallifning “olimlik” da’vo qiluvchilarga nisbatan haqiqat tarozusida tortilgan fikrlar armug’onini havola qilishidir ham. Shu o’rinda dramaturgning Olim obrazi orqali fan sohasida birovlar mehnati bilan qandaydir mavqelarga erishib yurgan kishilar ustidan kulib, sohta niqoblarga “chang” solishi e’tiborlidir. Boshqa obrazlarning esa bundayin voqelikka bevosita bog’liqligi, ahamiyat jihatidan ular o’rnini ham belgilaydi. Xususan, bu ota-o’g’ilning ichki qiyofalarida borgan sari yuzaga chiqa boshlaydiki, buni o’z jonivorlarini yer-u ko’kka ishonmaydigan Pirmatning “Mehr yo’qmi – chorva o’ldi, deyaver. Jonivorgayam mehr kerak” deya ta’kidlashiga o’g’lining “Odamga-chi, odamga?” tarzida sha’ma qilib o’tishi, Qulmat fe’l atvoridagi ezgulik unsurlaridan birini ko’rsatadi. Uning yubiley sabab kelganligini eshitgan Olimning bundan bexabarligi, uning Rahmatullaga asli qanday do’st ekanligini ham namoyon etadiki, bu borada Pirmat va Qulmatlar bilan Olim obrazlari o’rtasidagi ilk qarama-qarshilik yuzaga chiqadi. Ayniqsa Olimning yubileyga nisbatan “Qarang, bu informatsiyalar to’fonida mayda-chuyda narsalarni payqamaysan ham kishi. Oltmishga to’ldimi, a?” deya uni “mayda-chuyda” lar qatoriga kiritishi, uning tabiatidagi yashirin pardalarni ko’taradi. Shu pallada ular safiga tortinibgina kirgan shoir qo’shiladi. Muallif izohi bo’yicha u “Ismini oqlash uchungina she’r yozadi. Mabodo uni O’roqvoy deb atashganlarida, so’zsiz, dehqon bo’lardi”. Rahmatullaning uyiga agarda u kelgan bo’lsa, bolalarini aylantirib kelishini iltimos qilgani chiqqan. Bu esa o’z navbatida, uning farzandlar tarbiyasiga beloqaydligini-yu, mas’uliyatsizligini bildiribgina qolmay, uning Rahmatulladan boshqalar kabi o’z manfaati yo’lida foydalanishi va, hattoki, uning yubileyi haqida ham bilmasligi, e’tibor gulshanining hazonga aylanib borayotganligini ifodalasa ajab emas. Zero ijod kishilarining salbiy illatlarga giriftor bo’lishi – bu katta fojeaki, ularning biri sifatida Shoir obrazi namoyon bo’ladi. Uning tabiatiga xos chizg’ilar Olim tashabbusi bilan boshlab yuborilgan Rahmatullaning yubileyiga tayyorgarlik ishlari asnosida ko’rina boshlaydi. Bunda uning “gastronomga tushib ketayotganda” Olim tomonidan to’xtatilib “Karvonning ketiga qarama, berganning betiga” deya uzatgan puliga “Bizam ja o’ladigan joyidamasmiz, amaki” deb javob qaytara chiqib ketishi har holda uning g’urur bobida “past” emasligini ko’rsatadi. Shuningdek Nozikning Rahmatullanikidan “Qaysi yiliyam o’rtanchasining tug’ilgan kunida” olib ketgan stulini qaytarib kelishi, undagi mas’uliyatsizlik alomatlarini ko’rsatadi. Olimning “Tashkiliy masalalarda” Shoirga ishonmay ortidan ketishi esa

Shoirning bo'shangroq ekanligidan darak beradi.Olimning o'zini tutishiga nisbatan Qulmat tomonidan "Bir qop yong'oq" deya ta'riflanishi ham uning maqtanchoqligini namoyish etadi.Barcha o'z yumushlari bilan bo'lib har yonga tarqalgach, Pirmat tag'in Qulmatni ketishga qistab, uni ertalabki poyezdga chipta olib kelish uchun jo'natmoqchi bo'ladi. Shu dialog orqali Qulmatning chindan ham Pirmat uchun bola kabi ekanligi ko'rinadi:

Pirmat. Hayallab yurma, shahar joy...

Qulmat. Xo'p. Bir oyog'im vokzalda, ikkinchisi shu yerda bo'ladi.

Pirmat.Shomga qolmay ikkala oyog'ing ham shu yerda bo'lsin.

Qulmat. Xo'p.

Pirmat.Undan keyin ko'chada lallayib yurma.

Qulmat. Xo'p.

Pirmat.Shaxdam-shaxdam qadam tashlab yur. Ana o'shanda bu yerning kissavurlari, "ha-a, buyam o'zimizdan ekan", deb o'tib ketaveradi

Qulmat. E, nima deyapsiz Qulmatingizni! Bizni ko'rganda Varshava, Praga, Vena, Berlin kissavurlari ham "akajon" deb qochgan, xo'pmi?

Shu chog' voqealar sahnasiga Nafisaxon kirib keladi.U haqda avvalroq Olim fikr bildirib o'tadi "Xotindan yalchimadi do'stim.Nafisaxon ham yomon ayol emas, qo'l-oyog'i chaqqon, vafodor... nima deydi, aql-u xushi joyida.Lekin, Rahmatullaning qadriga yetmadi, otam". Bundan Nafisaning Rahmatulla ayoli ekanligi va ular o'rtasidagi munosabatlar unchalik yaxshi emasligi bilinadi. Ammo uning "bir dasta gul bilan kirib kelishi" uning boshqalar kabi bee'tibor qolmaganligini ko'rsatadiki, bu Nafisa tabiatidagi ilk ijobiy fazilatdir. Uning Qulmat-la ko'rishganidan so'ng yelkasiga bosh qo'yib yig'lab yuborishi, ichi dard-u hasratga to'laligidan darak berib, Qulmatni yaqin olib hasratlanishi uning yana bir bor chindan-da Rahmatullaga birodar ekanligini anglatadi. Lek Qulmatning "Oltmish yosh-a, oltmish yosh... Aytishga oson, xo'pmi... To'y-da, a, dada? Ha, to'y... Qo'ying, Navisaxon, yaxshi emas" deya so'zlashidan Nafisaxonning tezda yupoanishi, yuzaga kelgan tushkun holatni aritadi. Nafisaning Qulmatdan "Bu kishi dadangiz bo'lsalar kerak-a?" deya Pirmatni so'roqlashi uni birinchi bor ko'rib turganligini, "Ish ko'p, Qulmat aka... Maktabda chorak tugayapti" jumlasidan esa uning muallima bo'lib ishlashi anglashiladi.Shu bilan birga Nafisaning "O'rtig'ingingiz

ko'rinmaydilar" deya Qulmatga murojaati-yu, atrofga qarab "Hammasi o'sha-o'sha. Hech narsa o'zgarmabdi" deyishidan uning anchadan buyon uyiga kelmaganligi bilinadiki, shu tobda shovqin-suron bilan radiola ko'targan Olim, turli shisha-yu konserva bankalari to'ldirilgan to'rxalta bilan Shoir va patnisda har xil yegulik ko'tarib Noziklar kirib kelishadi. Aytish joizki, ayni shu nuqtada pyesa qatnashchilari bir joyda to'planib, asar mohiyatini aks ettiruvchi manzil sari ravona bo'lishadi. Bunda esa pyesa ishtirokchilarini o'zaro birlashtirgan Rahmatulla voqealar silsilasining bevosita ishtirokchisiga hamda mehmonlar qiyofasining asl ko'rinishini namoyon etguvchi timsolga aylanadiki, asar g'oyasining ifodalanishi ham shu bilan bog'liqdir. Garchi u pyesa ishtirokchisi sifatida qatnashmasa-da, boshqa personajlar orqali uning qanday inson ekanligini bilib olish qiyin emas. U haqdagi ilk taassurot Qulmatning "Ilmga sal aralashdimi, eshigiga "bu yerda falonchi olim yashaydi", deb yozib qo'yishadi, xo'pmi. Rahmatullaga o'xshaganlar yozmaydi – demak, adashmabmiz" deya kirib kelishidan paydo bo'ladi. Bundan uning shon-u shuhratga uchmaydigan kamtarona hislatli inson ekanligi seziladi. Shuningdek uyida "odam bosh suyagi" ning borligi, Olimning "Rahmatulla ham, men ham poleantropologlarmiz. Tushunmadingiz-a? Bu degani, antropologiyaning qadimgi odam suyaklarini o'rganuvchi bo'limi, degani. Men nazariyotchiman, Rahmatulla amaliyotchi." deyishi va Qulmatning "Chet eldagi olimlar ham: "Bu kimning suyagi, qachon o'lgan, nimadan o'lgan", deb Rahmatulla bilan aqllashishadi, xo'pmi" degan fikridan uning qay sohada faoliyat yuritishigina emas, balki o'z kasbining yetuk mutaxassisi ekanligi-da bilinadi. Qulmatning bir o'rinda "Bugun sanitar oltmishga kirdi, xo'pmi" jumlasini Rahmatullaning umr ko'rsatkichidan dalolat bersa, o'z uyidan qo'shni ayolning chayilgan kiyimlari uchun joy berishi, baribir ishlatilmaydi deya Mohilarnikiga olib chiqib ketilgan radiola, Gulsaralarnikidagi gilam-u, magazindan to'g'ri qo'shnilarinikiga ketgan televizor Pirmat aytganidek uning "Ja bag'ri keng" ligini ko'rsatadi. Rahmatullaning ko'zi yaxshi ko'rmasa ham urushga borishi va Qulmatning "Urushda feldsherlik qildi, xabaringiz bordir. Qayerda jang qaynasa – o'sha yerda Rahmatulla, xo'pmi. Biz sanitar deymiz. Hozir bilmadimu, u paytlar o'ta ko'ngilchan edi. Janggohda, deng, bizning yarador uchraydimi, nemisnikimi – yarasini bog'lab ketaverardi. Qon-qonigacha sanitar-da, yarador odamning oldidan o'tib ketolmasdi" deya aytgan so'zlaridan uning insoniy fazilatlarga ega jihatlari namoyon bo'ladi. Shu bilan birga Nozikning "Bolalarning ularga o'rganganini aytmaysizmi" fikriga Shoirning "Juda to'g'ri. O'rtanchamiz yarim kechada uyg'onib olib: "Rahmatulla akamga boraman", deb yig'laydigan bo'lgan" deya qo'shilishi Rahmatullaning mehr bulog'idan dalolatdir. Zero bolalar ko'ngliga bu qadar yo'l topish ham oson emas. Ayoli Nafisaning "Yosh edik... Rahmatulla akam student, men hali qoshini mo'ychinak tishlamagan qizcha edim. (*Marhum haqida gapirganday.*) Sevib, sevilib, ishq-muhabbat haqida bir kalima so'z eshitgan odam emasman. Buning o'rniga ertaklar so'zlardilar... Ovloq xiyobonlarda, kimsasiz tungi kechalarda ko'p ertak eshitganman..." deb bildirgan iqroridan esa

Rahmatullaning yoshlik chog'laridan qalb gulshaniga ezgulik iforlarini taratganligi ma'lum bo'ladi. Ammo uning chin aksi Pirmatning Nafisadan nima uchun, qanday sababga ko'ra ajralishganliklarini so'rganidan boshlab ko'rinadi. Nafisaning "Hamma gap shundaki, biror-bir kamchiligi, biror-bir bema'ni odati, biror-bir qusuri yo'q!", "Hamma narsaga o'zini butunlay, qoldiqsiz bag'ishlaydi", "Masalan, deylik, ertalab shoshib ishga ketyaptilar. Qayerdadir ko'cha yuzidagi vodoprovoddan bekorga suv oqib yotibdimi, Rahmatulla akam albatta aftobusdan tushib, vodoprovodni bekitib, so'ng keyingi aftobusni poylaydilar!", "Ko'cha to'la lak-lak odam, a? Hamma bilan salomlashadilar. Tushunyapsizmi, hamma bilan! Odamlar ahamiyat ham berishmaydi, payqashmaydi ham, yo'q, pichirlab o'zlaricha salomlashaveradilar! Tavba deb yoqamni ushlayman. Liq to'la tramvayda o'zlari arang osilib ketyaptilar-u, ichkaridagilar bilan salomlashaveradilar", "Ko'chada dumalab yotgan mast bormi, vokzal poezd kutib skameykada uxlab yotgan yo'lovchi bormi, to'ppa-to'g'ri uyga yetaklab kelaveradilar", "Kimning uyida go'sht bo'lmasa Rahmatulla akamga chiqishadi – yugurib borib olib kelib beradilar. "Rahmatulla aka, Zokirjonni bog'chaga tashlab o'ting, men ishga kech qolyapman!", "Rahmatulla aka, uyga mehmon kelib qoldi, iltimos, ikki shisha aroq olib kelib bering!", "Rahmatulla aka, elektrchi kelib, to'polon qilib ketdi, shundoq borib elektr haqini to'lb keling, men ovqat boshlab qo'yuvdim!" Kimningdir bolasi bilan dars qilishlari kerak – ota-onasining vaqti yo'q. Kimningdir tomida antennasi qulab tushgan, uni tuzatishlari kerak – egasi balandlikdan qo'rqadi. Kimningdir uyiga mehmon kelgan, bolasini tuvagi bilan bu yerga olib chiqib o'tqazib qo'yadi – mehmonlarga toza havo kerak. Kimningdir qishloqda tog'asi o'ladi, Rahmatulla akam borishlari kerak – jiyani dissertatsiya yoqlayapti!" deya kuyunib so'zlashidan, Olimning "Deylik, u yoki bu ekspeditsiyaga chiqish iyul, avgustga to'g'ri keldi. Qizilqumda issiq – 50-55! Kimning borgisi keladi? Bittasining bolasi kasal bo'lib qoladi, bittasi ilmiy ishini bahona qiladi, boshqasining yana bir sababi bor. Xullas, mingta bahona. Kim borishi kerak? Rahmatulla-da! Uzoq yili ozorbayjonlik hamkasblarimiz yordamga chaqirishdi. Absheron, bilasizlar, kurort joy. Kim borishi kerak? Hamma! Rahmatulladan boshqa" tarzida bildirgan haqiqatidan, hatto, o'z qizidan imtihon ola turib, "bilimiga yarasha" deya ikki baho qo'yib yiqitganligidan Rahmatullaning qandayin inson ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. O'zi qatnashmagani holda o'quvchi ko'z o'ngida alohida bir shaxs sifatida tiklanishi va uning nainki pyesa qatnashuvchilari, balki butun insoniyatga qarata qanchalar o'zligidan yiroqlashib ketayotganligini ko'rsatuvchi ko'zgu sifatida talqin etilganligi daramaturgning yana bir karra yuksak mahoratidan dalolatdir. Baayni Rahmatulla orqali muallif pyesa qatnashchilarini asliyat sarhadlariga boshlab kiradi. Bunda esa Rahmatullani odamiylik, mehr-oqibat ramzi timsolida ko'rish mumkin. Muallif u orqali insonlar o'rtasida ezgulik fazilatlarini targ'ib etadiki, buni Qulmatning "Axir, askarning tosh haykali poyigayam gullar qo'yamiz-ku! Qarshisida bosh egamiz-ku! Toshga-ya! Lekin sanitarga o'xshagan, hozircha o'z oyog'I bilan yurib

turgan tirik yodgorliklargachi?! Ular tosh emas! Tirik jon, xo'pmi! Ursang, joni og'riydi!", " Hozir, shunday tinch zamonda ham sanitarlik qilayotgan ekansan-da, sanitar!" deya kuyunib so'zlashidan anglash mumkin. Ayni uning qadimgi odam suyaklari bilan shug'ullanishi ham bejiz ems. Bunda Olimning "Sen insoniyat tarixini o'rgana turib, insoniyat kelajagini yaratayapsan!" deyishi Rahmatullaning umr bo'yi o'zligimizni anglatishga urunishidan dalolatdir. Ammo Nafisaning "Mutlaqo nuqsonsiz odam bilan yashash nimaligini bilasizmi o'zingiz? Bilmaysiz! Hech kim bilmaydi! Unaqa odam bilan yashab bo'lmaydi", "Unaqa odamni chang qo'nmasligi uchun shaffof shkafga solib qo'yib, eksponat sifatida tomosha qilish mumkin, xolos!" deb, Shoirning esa "Bunchalik bo'lishi kerak emas, albatta" deya Rahmatullaga nisbatan e'tiroz bildirishi, Pirmatning "Rahmatullaga o'xshagan odam yo'q, hech kim unga o'xshab yashamaydi, deb qichqirasalar. Ha, unga o'xshagan odam kam. Ehtimol, yo'qdir ham. Nega shunday? Qani, kim aytadi, nega? Negaki, unday odam bo'lishga imkon berishmaydi! Qo'ymaysalar-da, imon topgurlar, qo'ymaysalar!!!" degan hitobiga asos bo'ladiki, bu pyesaning butun fojeaviylik xususiyatini o'zida mujassamlashtiradi. Pirmatning asar g'oyasini ifodalovchi "*(Olimga)*. Olim odam ekansan, imon topgur. Ilm arboblari jamiki odamizodning aql chirog'i. *(Chanoqlardan birini unga tutadi, Olim beixtiyor oladi)* O'sha chiroq xira tortsa, bizga o'xshagan ko'zi uncha yaxshi ko'rmaydiganlar nima qiladi, imon topgur? *(Olim jim)* Sen shoirsan. G'azal bitasan. *(Bosh suyaklardan birini berib)* Ko'ngildagini qog'ozga tushurasan. Ko'ngildagini, dildagini. "Qalb", deysizlarmi? Ana o'sha qalb so'qirlashsa, bizning holimiz ne kechadi, imon topgur? *(Savol javobsiz qoladi. Nozikka)* Sen qo'shnisan. *(Bosh suyagini tutqazib)* Qo'ni-qo'shni... Mahalla-ko'y... Jamoa... Oqibat bo'lmasa, yorug' olamni changitib, yashab nima qildik, imon topgur? *(Nozik yerga qaraydi. Nafisaga)* Sen oila vakilasisan. *(Bosh chanog'ini berib)* Oila... Ro'zg'or... zurriyot... Oilada bir-birini tushunmasa, odamizodning juft-juft bo'lib yashashining nima ma'nosi qoldi, imon topgur?" so'zlari esa pyesaning avj nuqtasi bo'lishi bilan birga, Rahmatulla tomonidan yig'ilgan suyaklarning bu tariqa qatnashuvchilarga berilishi "o'zligingni unutma" degan ma'noni ifodalaydi. Asar so'nggida Nozikning "Nega bunday bo'lib chiqyapti? Ey, xudoyim..." qabilida, Shoirning "Qiziq, odam tanasini qanchalik parvarish qiladi: do'xtirga qaratadi, dori-darmon, badantarbiya, parhez... Qalbni-chi, qalbni? U nega muolaja qilinmaydi? Axir u tanamizdan ko'ra parvarishga ko'proq muhtoj-ku..." deya, Olimning "Antropofagiya. Yunoncha so'z... Odamxo'rlik degani... Tirik odamni yeb qo'yish hech gap emas ekan..." tarzida, Nafisaning "To'g'ri, hech gap emas... Kimdir bir kunda yeb qo'ya qoladi, kimdir shoshilmay har kuni, kimdir... o'ttiz yilda... ishtahaga qarab-da..." deb o'z xatolarini tushunib yetganidan so'ng Nozikning "Keldilar!... Rahmatulla akam... Rahmatulla amakim keldilar!" hitobidan qadam tovushlarining eshitilishi va eng so'nggida eshikning sekingina taqillashi bilan pyesa o'z yechimini topadiki, bundan qachonki insonlar o'z ayblarini

tushunib, o'zliklarini anglaganda Rahmatulla, ya'ni insoniylik, mehr-oqibat tashrif buyuradi degan xulosa kelib chiqadi. Shu boisdan ham pyesada Rahmatulla bilan qolgan qatnashuvchilar o'zaro qarama-qarshi qo'yiladi. Go'yo insonlarning go'zal fazilatlari birla yomon illatlarini solishtirgandek. Garchi asarda bu kabi insoniy fazilatlarni targ'ib etuvchi jihatlar namoyon bo'lsa-da, uning ma'no – mazmun ummoniga chuqurroq sho'ng'ish natijasida, dramaturgning istiqbolimizga qadar yurtimiz bo'ylab hukm surgan vaziyatga nisbatan, qatnashuvchilarning "niqobdor" so'zlari orqali o'z munosabatini bildirib o'tganligini ham ilg'ash mumkindir. Xususan, bir o'rinda Nafisaning Rahmatulladan eshitib, aytib bergan hikoyasi zamirida ana shunday ma'no yashirinki, unda "juda juda badavlat, shu bilan birga haddan tashqari sahiy bir odam"ning zolimlar zulmidan jabr chekayotgan kambag'allar uchun jannatmakon orol izlab topgani holda, barcha faqirlarni u yerga to'plab, don-dun, oziq-ovqat va boshqa zaruriy narsalarni hammaga barobar bo'lib berganligi hamda ma'lum muddat o'tgach, ularning yana avvalgidek birlari badavlat-u birlari kambag'al bo'lib qolganligi ko'rsatiladi. "Aytishlaricha, o'sha sahiy odam hali-hali kimsasiz orol qidirib yurgan emish" deya yakunlanuvchi mazkur hikoya orqali o'sha davrlarda hukm surgan kommunistik g'oyaga nisbatan qarashlar ifodasini ko'rish mumkin. Zero barchani teng qilishga uringan mafkura kurashchilarining intilishlari sarob ekanligi sahiy odam misolida ko'rsatilgan bo'lsa ajab emas. Shuningdek yurtimizning o'zgalar ta'ziyqi ostida bo'lganligi ko'ngilchan Rahmatulla timsolida aks ettirilib, boshqalarning undan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishi yurtimizga qiyosan targ'ib etilganki, bu borada Nafisaning "Alam qiladigan joyi shundaki, Qulmat aka, o'rtog'ingiz xafayam bo'lmaydilar, buni tabiiy hol deb biladilar! Axir bu daxshat emasmi ?!" deya bildirgan fikrlari muallifning vatanimiz sarhadlaridan chet davlatlarga olib chiqib ketilgan "xazina"larga nisbatan munosabati aksi sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa asar tilining sodda-yu ravon ifodalanganligi bilan bevosita aloqador bo'lib, ayni damda Pirmatning "Qiyom kaltaning xotini senikiga chiqib mag'zava to'ksa nima qilarding?", Qulmatning "Ha endi, u boshqa gap. U – qishloqchilik, bu – domchilik ,xo'pmi", Nozikning "O'lsin, har kuni bir dunyo yig'ilib qoladi. Bilmayman, nimaga bunaqa gugurt qutiday qilib qurishadi bu uy o'lgurlarni", Olimning "Paleantropologiya. Ming-ming yil ilgari yashagan odamlarning turmush tarzi, tafakkur darajasi, madaniyati va hokazolarni o'rganadi" tarzida bildirgan jumalari orqali o'z tasdig'ini topadi. Pyesaning bu yanglig' ma'no-mazmun, davr va xalqona til jihatlarini uyg'unlashtirganligi, "Tabiat tabiat bo'lganidan beri bitta-yu bitta dohiyona mo'jiza yaratdiki, bu – INSON ! U yer-u osmon orasidagi bor mavjudotlar ichida mehr-u shafqatga eng tashnasi, eng muhtojidir" degan fikrni targ'ib etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Voqealar so'ngida Pirmatning tashlattirib yuborgan bosh suyaklarini olib chiqib "Mana bu qutichaning ichidayam bir paytlar qatig'i bo'lgan. Endi yo'q... Odamlar bor, yelkasida manavi qutichani ko'tarib yuradi-yu, qilgan ishi – bir umr shu qutichada qatiq ivitmoq, xolos... " deya haqiqat durlarini sochishi esa dramaturgning o'quvchi

qalbiga yetkazmoqchi bo'lgan buyuk falsafiy hikmatnomasidir. Bundan shuni anglash mumkinki, inson dunyoga shunchaki kelib-ketmasligi, unga berilgan bebaho umrni behuda ishlarga sarflamasligi va, albatta, bir-birlarini tushunib, hamisha odamiylik mezonlarini saqlab qolmog'i joizdir. Zero "Eshik qoqqan kim bo'ldi?" pyesasining asosiy mohiyati ham shundadir.